

# **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ISTE'MOL MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MODELI**

**Umnov Dmitriy Gennadyevich**

**Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti doktoranti**

**Andijon davlat chet tillar instituti o'qiyuvchisi**

[umnov.dmitriy.gennadeviich@mail.ru](mailto:umnov.dmitriy.gennadeviich@mail.ru)

+998934448531

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish masalalari, uning nazariy asoslari, tarixi va hozirgi kunda dolzarbligi atroflicha tahlil qilinadi. Yuqoridagi nazariy va metodologik asoslarga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish texnologiyasi mazmunida ishlab chiqilgan model havola qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, iste'mol madaniyati, maktabgacha ta'lim, maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchi, bolaning ijtimoiylashuvi, «Ilk qadam» davlat dasturi, marketing, model.

## **МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ КУЛЬТУРЫ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

**Умнов Дмитрий Геннадьевич**

**Докторант Андижанского государственного университета имени  
З.М.Бобура**

**Преподаватель Андижанского государственного института  
иностранных языков**

[umnov.dmitriy.gennadeviich@mail.ru](mailto:umnov.dmitriy.gennadeviich@mail.ru)

+998934448531

**Аннотация:** В статье подробно анализируются вопросы формирования потребительской культуры у детей дошкольного возраста, ее теоретические основы, история и актуальность в настоящее время. Опираясь на вышеуказанные теоретико-методологические основы, предлагается модель, разработанная с содержанием технологии формирования потребительской культуры у детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, потребительская культура, дошкольное образование, дошкольник, социализация ребенка, государственная программа «Илк кадам», маркетинг, модель.

# THE MODEL OF FORMATION OF CONSUMER CULTURE IN PRESCHOOL CHILDREN

*Doctoral student of the Andijan State University*

*named after Z.M. Babur*

*Teacher of the Andijan State Institute of Foreign Languages*

*Umnov Dmitry Gennadievich*

[umnov.dmitriy.gennadevich@mail.ru](mailto:umnov.dmitriy.gennadevich@mail.ru)

+998934448531

**Abstract:** The article analyzes in detail the issues of the formation of consumer culture in preschool children, its theoretical foundations, history and relevance at the present time. Based on the above theoretical and methodological foundations, we propose a model developed with the content of technology for the formation of consumer culture in preschool children.

**Keywords:** education, upbringing, consumer culture, preschool education, preschooler, child socialization, state program "Ilk qadam", marketing, model.

## KIRISH

Yurtning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Hozirgi globallashuv sharoitida yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga oid muammolar va ularning yechimi masalasi davlat siyosatining asosiy masalasi sifatida kun tartibiga qo'yildi. Uzluksiz ta'limning birinchi bosqichi maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining har tomonlama rivojlanishini, jumladan, ularning ijtimoiylashuvi zaruratini o'rta qo'yadi. Bolaning ijtimoiylashuvi esa o'z navbatida o'sib borayotgan tarbiyalanuvchi shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "men" obrazini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini takomillashtirish tadbirlarini taqozo qiladi. Bunday pedagogik tadbirlar sirasida kichkintoylarning iqtisodiy tarbiyasi, iste'molchilik madaniyati masalasi ham joy olishi darkor.

## ADABIYOTLARNING TAHLILI

Huquqiy-me'yoriy adabiyotlar tahliliga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198 farmonida sohani rivojlantirishni ko'zda tutgan holda katta e'tibor MTTda tarbiyalanuvchilarni intellekt rivojlanishi, ma'naviy-axloqiy, kommunikativ ko'nikmalarini ochishga qaratilgan[1]. Farmondagi ana shu jihat maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishini, jumladan, ularning ijtimoiylashuvi zaruratini o'rta qiqaradi. Ijtimoiylashuv davrida ilk iqtisodiy va iste'mol madaniyati haqidagi tushunchalarni shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bolada iste'mol yoki iqtisodiy tarbiya muhitini maktabgacha ta'lim tashkilotidan yo'lga qo'yilsa, uning shaxsiy rivojlanishidagi intellektual, ma'naviy-ma'rifiy jihatlariga ta'siri samarali bo'ladi va uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar olamiga kirib kelishiga zamin yaraladi. Iste'molchilik haqidagi bilimlarsiz bola boshqa odamlarning mehnatini qadrlay olmaydi, o'ziga havola qilingan ne'matlar qanday harakat, zahmatlardan vujudga kelganini bilmaydi, qat'iyatlilik, vijdonlilik, tejamkorlik, mehnasevarlik, mehnatning faoliyatidan qoniqish va zavq olish kabi ijtimoiy tushunchalarga befarq bo'ladi. Natijada uning qiyofasida axloqiy-huquqiy me'yorlarga muvofiq yashash va samarali mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan faol shaxsni tarbiyalash mushkul bo'lib qoladi.

Iste'molchilik madaniyati - bu moddiy va ma'naviy qadriyatlar, bilimlar, ibrat va iste'mol hulq-atvorning me'yorlaridan iborat bo'lib, ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega va bu jarayon kundalik faoliyatda amalga oshiriladi va rivojlanadi. Iste'mol madaniyati shaxsning umumiy madaniyatida alohida o'rin tutadi va uning barcha tarkibiy qismlari (bilim, sifat, qiymat yo'nalishlari va boshqalar) rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, iste'molchi hatti-harakatini amaliy boshqaradi.

Iste'molchilik madaniyati - bu moddiy va ma'naviy qadriyatlar, bilimlar, ibrat va iste'mol hulq-atvorning me'yorlaridan iborat bo'lib, ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega va bu jarayon kundalik faoliyatda amalga oshiriladi va rivojlanadi. Iste'mol madaniyati shaxsning umumiy madaniyatida alohida o'rin tutadi va uning

barcha tarkibiy qismlari (bilim, sifat, qiymat yo'nalishlari va boshqalar) rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, iste'molchi hatti-harakatini amaliy boshqaradi[2].

Iste'mol xulq va iste'mol madaniyati nazariyasiga oid asoslarning ilk kurtaklari mutafakkir Aristotelning (384 - 322 er.av.) asarlarida uchraydi. Tarixiy va iqtisodiy adabiyotlardan bizga ma'lumki, Aristotelning ayrim bugungi kundagi iqtisodiy toifalarga qo'shgan hissasi katta ahamiyatga ega. Aristotel birinchi bo'lib qiymatning shakllarini tahlil qilishga intilgan. Marketing, iste'molchilarning motivasiyasi va xatti-harakatlarini borasidagi qarashlarida Aristotel g'oyalarining izlarini ko'rish mumkin. Shaxs xulq-atvoriga iste'molchilik nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bugungi kunda madaniy iste'molchini tarbiyalash uchun asos sifatida Aristotelning "Oltin o'rta haqida" ta'limotini o'rta qo'yish juda foydali bo'ladi.

XV asrning oxirida tavallud topgan Yan Amos Komenskiy chexiyalik gumanist o'qituvchi, yozuvchi, o'z zamonida mustaqil fan sifatida shakllangan "Pedagogika" fanining asoschisi va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tuzilgan "Onalik maktabi" dasturining muallifidir. Komenskiy XVI asrning o'rtalarida o'zining "Onalik maktabi" dasturida bolalarga iqtisodiy bilimni berish lozimligini, ularaga uy xo'jaligini boshqarish haqida tushuncha berishni, jumladan, bolalar kundalik hayot va bayramlar uchun kiyimlar tanlay olishlari, qaysi birini qachon kiyishni bilishlari, ularni avaylash va ifloslantirmaslikka o'rgatish zarurligi borasida so'z yuritadi [3]. Mazkur qarashlari bilan buyuk pedagog bugungi kun iste'mol tarbiyasiga yaqin kelganini ko'rish mumkin.

Iste'molchilar inqilobi Buyuk Britaniyada XVII asrdan XVIII asrgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi, unda turli xil iqtisodiy va ijtimoiy qatlamlardagi shaxslar tomonidan turli tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish ko'paya boshladi. Iste'molchilar inqilobi an'anaviy turmush tarzidan ajralib chiqdi, unda tejamkorlik va tanqislik jamiyatda tobora ko'proq ommaviy iste'mol mavzusiga aylandi[4].

Dennis Devidson "XIX asr bolasi va iste'mol madaniyati" asarida XIX asrda iste'mol madaniyatining yuksalishi davrida bolalar va umuman bolalik ijtimoiy hayotda, tovar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishda bir qator muhim rollarni

bajarish uchun mo'ljallanganligi aniqlangan. Bu taxlit asarda xilma-xil iqtisodiy-iste'mol funktsiyalar kolleksiyadasi o'n to'qqizinchi asr iste'mol madaniyati kontekstidagi bolalarga Yuklangan rollar borasida so'z yuritiladi, shu bilan birga, u yosh iste'molchilar o'z davrida kattalar tomonidan ifodalangan madaniy kontekstlarda shunchaki mavjud bo'lmagani, balki ularning shakllanishida vositachi – agentlar bo'lganligini qayd etish lozimligi borasida qat'iy pozisiyada turadi. Shu o'rinda o'yinchoqlar va bolalik, bolalik va qo'g'irchoq teatri, Viktoriya sahnasidagi ijrochi bolalar kabi munosabatlarni eslab o'tish o'rinli bo'ladi[5].

"Iste'molchi xulq-atvori" modelining muallifi I.V.Alyoshina iste'molchi xatti-harakatlarini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratgan: birinchi bu ehtiyojlar, ikkinchi bu qaror qabul qilish jarayoni va uchinchi iste'molga ta'sir qiluvchi omillar.

Katta guruh olimlar: A.Amend, I.Barillo, M.Ermolenko, I.Itkin, K.Klepach, N.Kulakov, I.Melnichuk, L.Ponomarev, I.Sasov, A.Shpak iqtisodiy ta'lim va tarbiyani mustaqil yo'nalish deb hisoblaydilar, shu bilan birga ular iqtisodiy ta'lim va tarbiya tushunchasi mazmunini ochib berganlar. Masalan, ularga ko'ra iqtisodiy ta'lim deganda o'quvchilar tomonidan iqtisodiy bilimlarni egallash va ularni amalda qo'llash ko'nikma va ehtiyojlarini shakllantirish tushuniladi[6].

Tadqiqotchilar S.Batishev, Yu.Vasilev, P.Atutov, N.Kulakovalar fikricha, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda va boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy va mehnat ta'lim bo'yicha bilimlar egalanishi evaziga iste'mol madaniyat rivojlanadi. Bunday holatda iqtisodiy ta'lim va tarbiya bolalarni hayotga hamda mehnatga tayyorlashga zamin hozirlaydi va ularni fuqarolik mas'uliyatiga, halol mehnat va axloqiy yetuklikka chorlaydi.

N.Barilo, Y.Vasileva, G.Gebekova, N.Kulakova O.Loseva, S.Malinina va boshqalarning ishlari turli fanlar asoslarini o'rganish jarayonida o'quvchilarda iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish muammosiga bag'ishlangan. Ular fan asoslarining mazmunini tahlil qilish, iqtisodiy bilimlarni aniqlash va darajalash, asosiy va yordamchi iqtisodiy tushunchalarni aniqlashni ta'minlaydi.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Maqola metodologiyasi postpozitivizmga va strukturalanmagan usulga asoslanib, nazariy tahlil, umumlashtirish, kuzatish, suhbat, ekspert baholash, faoliyat natijalarini o'rganish, pedagogik eksperiment kabi empirik usullardan foydalanildi. Hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'lim usullari, shakllari, vazifalari va tamoyillarini o'zida aks etgan modeli ishlab chiqildi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish Davlat standartlari va uning tarkibiy qismi hisoblanmish ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari va Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi, hususan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, asosida izchillik, tizimlilik, uzviylik tamoyili talab etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan o'quv mashg'ulotlarida bola bilimi va dunyoqarashini rivojlantirishda davlat tomonidan belgilangan tizimli dastur asosida bilim berib boriladi. Mashg'ulotlar bolaning yoshi, aqliy imkoniyati hisobga olingan holda qiziqarli o'yinlar tarzida o'tiladi. Masalan, bolani atrof-muhit bilan tanishtirish, ilk matematik tasavvurini uyg'otish, nutqini boyitish, savodini chiqarishga tayyorlash, badiiy adabiyotga oshno etish, rasm chizish, turli buyumlar yasash, applikasiya, jismoniy tarbiya, musiqa va boshqalar aynan ta'lim muassasasida o'rgatiladi. Shuningdek, o'tkaziladigan turli ma'naviy kechalar, teatr tomoshalari, ekskursiyalar, kreativ loyihalar bolaning estetik didini shakllantiradi, taassurotini boyitadi, nutqini oshiradi, kreativlik va ijtimoiy kompetentligini oshiradi. Bular orqali bolada "men", "biz" tuyg'ulari rivojlanadi.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturida bolaning kompetentsiyalari bola rivojlanishining quyidagi yo'nalishlarida aniqlanadi: jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy va hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari; kognitiv jarayonning rivojlanishi; ijodiy rivojlanish kabilarda ifodalanadi.

Ushbu dalillar bizga muhim xulosa chiqarishimizga imkon berdi ya'ni bolaning yuqorida keltirilgan kompetentsiyalarini rivojlantirish yo'lga qo'yilsa har tomonlama rivojlangan shaxsni jamiyatga yetishtirish mumkin va ushbu ijtimoiylashuv davrda maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish mumkunligini e'tirof etamiz.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda iste'molchilik madaniyatini yo'lga qo'yilishining pedagogik shart-sharoitlari sifatida oilaning o'rni va mohiyati ko'rib chiqiladi, maktabgacha ta'lim tashkilotining beshta rivojlantirish faollik markazlarida iste'mol madaniyatini shakllantirish texnologiyalari hamda ushbu madaniyatni shakllantirishda marketingni ta'siri alohida e'tiborga loyiq deb hisobladik.

Oila ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy ta'sirning o'ziga xos obyekti bo'lib. Hozirgi vaqtda oilani nafaqat bolaga tarbiya beruvchi, balki shaxsning birlamchi ijtimoiylashuvi instituti sifatida tushunish tobora kuchayib bormoqda. Oiladagi ta'lim-tarbiya deb barcha yaqin qarindoshlar: ota-ona, bobo va buvilar, maxalla, qo'ni-qo'shnilar qamrovidagi o'ziga xos tarbiyada iste'mol madaniyatini bolada shakllantirish vazifalarini o'z oldimizga qo'yganmiz.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaga ta'lim-tarbiya berish xususidagi maqsad va vazifalar Davlat standartlariga mos keluvchi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari va "ilk qadam" davlat o'quv dasturida o'z aksini topgan.

Mazkur model maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan "Ta'lim va tarbiya haqidagi qonun", "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" va "Ilk qadam" dasturi talablarini bajarishga yo'naltirilgan. Ta'lim maqsadining ijtimoiy buyurtma asosida ifodalanishi shaxs, davlat, jamiyat, fan-texnika hamda ishlab chiqarishning umumiy taraqqiyot darajasi bilan tavsiflanadi. Ta'lim tizimining oldida turgan asosiy masala bugungi kun va istiqbolda jamiyat ravnaqi uchun qanday shaxs, mutaxassis tayyorlash kerakligi bilan xarakterlanadi, ya'ni ta'lim jarayonida belgilangan muayyan talablarga mos shaxs shakllantirilishi lozim. Ta'lim maqsadi

ta'limning mohiyatini belgilaydi.

Ta'lim maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog'liq holda rivojlanish darajasining u yoki bu bosqichida ta'lim natijasiga erishish imkonini beradigan o'quv vositalari tanlanishini talab qiladi. Maqsad sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish etib belgilangan. Maqsad o'z navbatida ta'lim mazmuni, o'quv materiallari, vositalari va uning samaradorligini belgilaydi.

"Tashkiliy" komponent o'z ichiga 4 ta: "vazifalar", "ta'lim usullari", "ta'lim shakllari" va "tamoyillar" komponentlarini oladi. Shulardan birinchisi "vazifalar" komponenti bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirishda yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiylashuv davri, MTT va oila bilan birga tizimli yondoshgan holda shakllantirishni vazifa etib belgilaydi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining beshta rivojlantiruvchi faollik markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish vazifalari qamrab oladi. Bu orqali bolalar axloqiy, ijodiy, jismoniy, aqliy, mehnat va iqtisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda rivojlanishi ta'minlanadi. Iste'mol madaniyatining ustuvorlik jihatidan shundan iboratki, bunda bolalarning kundalik xayotda turli xil ehtiyojlarining qondirilishini ta'minlaydi. Tizimli va shaxsga yo'nalib yondashgan holda shakllantirish samaradorlikni ta'minlaydi. Dastlabki mashg'ulotlarda yuqori samaradorlikka erishmaslik, iste'mol madaniyatining kontseptual jihatdan kamchiligi sifatida emas, balki yangi tadbiriq etilishi bilan bog'liq bo'ladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Maqolada aytilganlarni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizning ertasi bo'lmish yosh avlodda iste'mol madaniyatini shakllantirishda, avvalo, hukumatimiz tomonidan e'lon qilingan ta'limga oid qator me'yoriy hujjatlar, Prezident qaror va farmonlari; ikkinchidan, antik davrdan yaqin yillargacha G'arb ilm-fanida olib borilgan ilmiy kuzatishlar hamda yurtimiz pedagog olimlarining ilmiy izlanishlari va ular tomonidan ilgari surilgan g'oyalar muammoni hal

qilishning metodologik asoslari bo'lib xizmat qiladi. Ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlangan, iqtisodiy bilim va iste'mol madaniyatiga ega shaxsiy "men" va komil inson timsoliga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya jarayonining yo'nalishini belgilab beruvchi maqsadlardan biridir. Zero "har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo'lishi kerak. Agar maqsad o'zgarsa tizim ham o'zgarishi shart"[7]. Shuni hisobga olgan holda modelning barcha tashkil etuvchi bloglari "maqsad" blogi bilan uzviy aloqadorlikka, bog'liqlikka ega.

### **ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni.
2. Степченко Т.А.- «Формирование потребительской культуры как средство социализации школьников»- диссертация, Москва-2008 г.
3. А.Шатова Экономическое воспитание детей дошкольного возраста: учебно – методического пособия М.2018
4. <https://en.wikipedia.org/>
5. <https://www.routledge.com/>
6. Л.Н.Галкина диссертация «Формирование элементарных экономических знаний у детей старшего дошкольного возраста»
7. Касимова Д. “Мактабгача таълимда педагогик технологиялар” модули бўйича маъруза матни // Тошкент, ХТХҚТМОИ. 2017. – 31 б.